

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MOLİYALASHTIRISH TIZIMI SAMARADORLIGINI AHAMIYATINING TASHKILY TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISHNING AHAMIYATI

Primkulova Zilola Abrorovna

Ilmiy rahbari: I.t.d.prof. Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich

Annotatsiya: The education system is a very complex socio-economic system, which is characterized not only by quantitative, but also by qualitative characteristics, territorial distribution and administrative subordination.

Kalit so'zlar: Moliyalashtirish, ishlab chiqarish, demografik, kompyuter, texnologiya, bozor xizmatlari, narx, foyda.

Kirish. Ta'lim tizimi juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, u nafaqat miqdoriy, balki sifat xususiyatlari, hududiy tarmoqlanishi va ma'muriy bo'ysunish xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida talabning sifat xususiyatlari esa aholi salomatligi, aholining ma'lumot darajasi, aholi tarkibi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning xususiyatlaridan biri taqdim etilgan demografik omillar ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu keyingi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi va isbotlaydi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy muammolaridan biri shundaki, hozirgi kunga qadar xalq ta'limi tizimida demografik omillarning talab va taklifini prognoz (bashorat) qilish uchun etarli vositalar ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi: Umumiy o'rta ta'lim tizimi statistik ko'rsatkichlar tizimini tanqidiy tahlil qilinib, mavjud muammoning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini aniqlash bo'yicha, statistik ko'rsatkichlar solishtirma tahlil qilindi.

Tahlil natijasida umumta'lim muassasalari, kompyuter sinflari va "Informatika" fani o'qituvchilar soni so'nggi yillarda qanchaga o'sganligi aks etgan.

Mamlakatimizdagi jami umumta'lim muassasalari soni so'nggi 4 yillikdagi faoliyati tahlil qilinganida, ularning soni 4,8% ga o'sganligini, biroq kompyuter sinflari soni esa ular o'sishidan tezroq, ya'ni 12,0% ga oshganligini ijobiy holat deyish mumkin.

Bugungi kunda har bir maktab hissasiga to'g'ri keladigan kompyuter sinflari (o'rtacha) soni 2017-2018 o'quv yiliga nisbatan 6,9% ga o'sgan bo'lsa, har bir maktab hissasiga to'g'ri keladigan "Informatika" fani o'qituvchilari (o'rtacha) soni 36,9% ga ortganligini ko'rishingiz mumkin. Har bir kompyuter sinflarida dars o'tadigan

"Informatika" fani o'qituvchilari (o'rtacha) soni 2017-2018 o'quv yiliga nisbatan 33,3% ga o'sgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020-2021 o'quv yilida 0,9 ta, 2019-2020 o'quv yilida 1,2 ta, 2018-2019 o'quv yilida 1,3 ta, 2017-2018 o'quv yilida 1,4 ta kompyuter sinflariga bo'lgan ehtiyoj har bir umumta'lim muassasalarida mavjud ekan.

Informatika fani o'qituvchilarini tayyorlashdan ko'ra maktab yoki qo'shimcha bino qurilishining ortda qolayotganligi, qurilish ishlarining sust ketayotganligi, hatto ayrim hududlarda kompyuter sinflarining umuman mavjud emasligi, bugungi kun zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan zamonda salbiy holat deb hisoblash mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, 2009-2010 o'quv yili boshiga 9772 ta maktabda 4892827 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 2019-2020 o'quv-yili boshiga esa 9942 ta maktabda 6119440 nafar o'quvchi ta'lim olgan, 2019-2020 o'quv yilida 2009-2010 o'quv yiliga nisbatan o'quvchilar soni 20,1 foizga (1226613 o'quvchiga) oshgan, maktablar soni esa 2019-2020 o'quv yilida 2009-2010 o'quv yiliga nisbatan ya'ni 10 yilda 1,71 foizga (170 ta) oshgan.

Shuningdek, 2009-2010 o'quv yilida o'rtacha har bir maktabda 501 nafar o'quvchi o'qigan bo'lsa, 2019-2020 o'quv yilida esa o'rtacha har bir maktabda 616 nafar o'quvchi ta'lim olgan. 2016-2017 o'quv yilidan boshlab, ta'lim tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar natijasida, bir yilda har bir maktabga qo'shimcha ravishda o'rtacha 110 nafar o'quvchi qabul qilishiga to'g'ri kelmoqda. Maktablarda o'quvchilarni qabul qilish sig'imi, har bir sinfdagi o'quvchilar soni me'yori, maktablarning moddiy-texnika bazasi ta'minoti va holati, o'tiladigan fanlarni malakali mutaxassis o'qituvchilar bilan qamrab olinganligi, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi kabi dolzarb masalalarga hukumatimiz tomonidan oxirgi 3-4 yilda alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yevropa Ittifoqi davlatlarining ijobiy ijtimoiy tajribasidan mamlakatimizda foydalanish zarurati – 2020 konsepsiyasida o'z aksini topgan.

Yuqoridagi material quyidagi tizimni joriy qilish imkonini beradi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish samaradorligi ko'rsatkichlari:

1. Hokimiyat uchun: 3 yoshgacha va 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'limning barcha turlarini muassasa xizmatlari bilan qamrab olish foizi;

Qurilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalarida bir joyning o'rtacha narxi;

Bolalar bog'chasi yoki bog'chasida joy olish uchun o'rtacha kutish vaqti, Ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasalarining ishi bo'yicha sharhlari - ota-onalarning ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatdan qoniqish darajasi.

2. Shaxs, jamiyat uchun.

Ta'lim dasturlari sifatini baholash. Bolalar bog'chasining har qanday turini tanlash imkoniyati (bog'chalar, bolalar bog'chalari, kunduzgi guruhlar, ota-onalar tomonidan

tashkil etilgan guruhlar, enagalar instituti), Yashash joyini o'zgartirish munosabati bilan maktabgacha ta'lim muassasalarida joylarni bepul almashtirish imkoniyati. Yuqoridagi mezonlardagi o'zgarishlar dinamikasini tahlil qilish maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tendentsiyalari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mustaqil Respublikamizni har tomonlama ravnaq toptirib, jahon sivilizatsiyasiga qo'shishga astoydil hizmat qiladigan doimiy rivojlanib turadigan qadriyatlar yndisidan iboratdir.


N. M. Soatovning ta'kidlashicha, asrlar osha turli ko'rinishlarda saqlanib kelgan o'tmish haqidagi bilimlar ertangi kun uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqarishga zamin bo'ladi. Millatning o'tmish haqidagi tasavvurlari milliy til, urf- odatlar, tarixiy janrdagi badiiy adabiyot namunalari, maqollar, dostonlar, tarixiy qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodining boshqa shakllari, joy nomlari kabi ma'naviy, arxitektura yodgorliklari, nodir kitoblar, qo'lyozmalar, buyumlar kabi moddiy madaniyat shakllarida mujassamlashgan milliy tarixiy xotira haqida ham shunday deyish mumkin. Nega maktablarda ta'lim sifati past? Umuman O'zbekistonda ta'lim sifati haqida ma'lumotlar bormi? Bugungi kunda "Ta'lim sifati" o'quvchilar soniga bog'liq(mi)?. Ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, unda pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasi va ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish, xususan o'quvchilar soni bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tarkibiy qismlar mavjud hisoblanadi. O'quvchilarning yoshi, qiziqishi, erishgan natijalari, idrok etishi, oilaviy kelib chiqishi va daromadi kabi individual ta'lim sifatini idrok etishda muhim omil hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, sinfdagi o'quvchilar soni sinf muhitiga, o'quv faoliyatiga, o'quvchilarning faolligiga va natijada o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'sir qiladi.

Jahonda maktab ta'limi, sinflardagi o'quvchilar soni kamroq bo'lishi har doim ham yaxshi natijalarga olib keladimi degan savol ko'p muhokamaga sabab bo'lib, sinfda o'quvchilar soni qanaqa bo'lishi haqida bahslashish an'ana bo'lib qoldi. Ammo sinfda o'quvchilar sonining kamligi ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy sababi ekanligini ko'rsatadigan maktabaro me'yor va ma'lumotlar mavjud emas. Bundan tashqari, sinfdagi o'quvchilar soniga bog'liq bo'lgan xarajatlarga mo'ljallangan mablag'ni boshqa yo'nalishlarga sarflanishi mumkin bo'ladi degan fikrlar ilgari surilmoqda.

Tahlil ma'lumotlariga ko'ra Xitoyda 537,1 mingta maktab va boshqa ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bu 2019 yilga nisbatan 1,33% ga ko'pdir. Xitoyda jami 239800 ta bolalar bog'chalari mavjud bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 16100 taga ko'p. Bog'chalarga qamrab olingan bolalar soni 19,2209 million nafarni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 867,6 ming nafarga kam. Maktabgacha ta'lim muassasalariga yalpi qamrab olish darajasi 77,4 foizga etdi.

Majburiy 9 yillik ta'limga ega jami 229,8 ming maktab mavjud bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 13,2 mingtaga kam, o'quvchilar soni 142 million kishini, to'liq shtatdagi

o'qituvchilar soni 9,2769 million kishini, 9 yillik majburiy ta'limni boshlagan o'quvchilar soniga nisbatan ushbu darajadagi maktab bitiruvchilari soni 93,4 foizga etdi(1-rasm).



1-rasm. Sinflardagi o'quvchilar soni tahlili

* Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti,

** Har bir sinfdagi 2 tadan o'qituvchi dars olib boradi.

Manba: O'tkazilgan so'rovlarni asosida mualliflar ishlanmasi

Xitoyda barcha darajadagi va turdagi jami 171 ming xususiy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ularning soni o'tgan yilga nisbatan 8253 taga ko'paydi, o'quvchilar soni 48,2547 million kishiga etdi. Sinfdagi o'quvchilar soni Xitoyda o'rtacha 30 nafargacha bo'lsa, uning eng chekka hududidagi qishloq maktabida 3 ta o'quvchi bor. Eng kam o'quvchilar soni Finlandiya sinflarida o'rtacha 19 nafar, Finlyandiyada maktab o'qituvchisi bo'lish uchun juda qattiq tanlovdan o'tish zarur: pedagogika ta'lim mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir ijobiy jihati, kichik guruhlarda o'qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta'limning yuqori sifatda bo'lishiga olib keladi. Mamlakatda maktab ta'limining muvaffaqiyati maktab o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash tizimi bilan ham bog'liq. Finlyandiyada jami iqtisodiyotda bandlar ulushida ijtimoiy ishchilar va psixologlar soni jihatidan, barcha Yevropa mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ma'lumot uchun: 2022 yil 16 martdagi WIESBADEN so'rovida asosan 228000 nafar yoshlar Germaniyada maktab va shogirdlik o'rtasidagi o'tish sektorining malakaviy dasturini boshladilar. Maqsad, shogirdlikni ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilash uchun ushbu dasturlar orqali asosiy kasbiy bilimlarni egallash yoki o'rta umumiy yoki o'rta maktab sertifikatini olishdir. O'qish va ta'lim bo'yicha integratsiyalashgan hisobotlarning vaqtinchalik natijalariga asoslanib, Federal

Statistika boshqarmasi (Destatis) shuningdek, 2020 yilda o‘tish sektori dasturlarida yangi ishtirokchilar soni 2,8%ga kamaydi. Bu pasayish tendensiyasi davom etganligini anglatadi. 2005 yilda o‘tish sektori dasturlarida taxminan 418000 yangi ishtirokchilar bor edi va 2016 yildan tashqari ularning soni o‘sha paytdan beri doimiy ravishda kamaydi.

BMTning ta’lim, bandlik va mehnat agentligi vakillari (BMTning Bolalar jamg‘armasi) va ta’lim sohasi vakillari O‘zbekistondagi ta’lim sifati masalasini muhokama qilib, o‘tkazgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, to‘rtinchi sinf o‘quvchilari orasida faqat 43 foiz bolalargina o‘qigan narsasini tushuna oladi. Uy vazifalarini bajarish uchun 28 foiz o‘quvchi 30-60 daqiqa, 25 foizi 30 daqiqa yoki undan kam, 22 foizi 1-2 soat, 17 foizi esa ikki soatdan ko‘proq vaqt sarflashi ma’lum bo‘ldi.

2021 yilda O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’limning yalpi qabul qilish koeffitsienti 97% ni tashkil etdi, boshlang‘ich maktablarda 100% va o‘rta maktablarda 94%. Biroq, “Respublikada ta’lim sifati to‘g‘risida to‘liq ma’lumot yo‘q” — o‘quv jarayonlari sifati va o‘quv natijalari to‘g‘risida ilmiy dalillar mavjud emas, deyiladi YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi ma’lumotiga ko‘ra.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘n yil davomida O‘zbekistonda o‘rtacha 20 foizga aholi soni oshib borsa, 2031 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida aholi soni 41470,32 mingdan oshib ketishi prognoz qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богоявленская Д.Б. Иждорлик ва истеъдоднинг асосий замонавий тушунчалари / Богоявленская Д. Б. – Москва: Ёш гвардия, 1997. –188 б.
2. Будаева Л.Н. Ўрта мактаб ўқувчилари ижодининг аксиологияси: дарслик. талабалар учун Humanit. fak. / Будаева Л. Н. илмий ед. А. В. Кирякова. – Оренбург.: ОГАУ, 2001. – 95 с.